


Hujjat kodi: **HO05404829**



## **NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

M.R.Qodirxonov  
**A.M.Tursunpulatov**

Targ'ibot qilish va nomzodlarni aniqlash uchun  
***Muddat: 30 Yanvar 2025***

**№20-06/71**  
21 Yanvar 2025

**B.E.Xusanov**  
Ректор





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS**  
**OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz



2025-yil 20-yanvar  
02/12-4/1-11512-son

**SHOSHILINCH**

**Oliy ta‘lim muassasalari  
rektorlari(direktorlari)ga**

*YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy komissiyasining  
2024-yil 19-dekabrda 430/24-sonli xatiga muvofiq*

YUNESKO va Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) Hukumatining 2025/2026-o‘quv yili uchun “Buyuk Devor” stipendiyasiga tanlovi e‘lon qilingan. Ushbu stipendiyalar dasturi doirasida XXR oliy ta‘lim muassasalarida tadqiqotchi (45 yosh), yetakchi tadqiqotchi (50 yosh)lar uchun bir yillik malaka oshirish kurslari, magistratura (35 yosh) hamda doktorantura (40 yosh) uchun bir yillik o‘quv kurslari tashkil etiladi. Tanlov g‘oliblarining xalqaro aviachipta va Xitoyda o‘qishi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari YUNESKO va XXR Hukumati tomonidan qoplanadi.

Tanlovda ishtirok etishni istagan nomzodlar oliy ta‘lim muassasasi bilan kelajakda o‘z faoliyatini bog‘lashga intilgan stajor-tadqiqotchi, yosh o‘qituvchilar orasidan tanlab olinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Nomzodlar magistr darajasiga (ba‘zi sohalar uchun bakalavr darajasiga) ega bo‘lishi va ingliz tilini yuqori darajada bilishlari talab etiladi.

Tanlab olingan nomzodlar quyidagi hujjatlarni **2 nusxada** to‘ldirishlari kerak:

- maxsus ariza varaqasi onlayn tarzda <http://www.csc.edu.cn/studyinchina> veb sahifasida to‘ldirilishi kerak (uning 2 nusxasi 3 ta rasm bilan birgalikda taqdim etiladi);
- diplom (ilovasi bilan birga) yoki sertifikat hamda reyting qaydnomasining tasdiqlangan nusxasi va tarjimasi (notarial tasdiqlangan nusxasi, ingliz tiliga tarjima qilingan holda);
- Xitoy universitetlarining biridan kelgan taklifnoma (agar oldindan ushbu universitet bilan aloqa o‘rnatilgan bo‘lsa);

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

K/R: 20-06/71

2025-yil 21-yanvar

- nomzodning ilmiy faoliyati bilan yaqindan tanish bo'lgan 2 nafar professor(olim)lar tavsiyanomasi (ingliz tilida);

- stipendiya uchun taqdim etilayotgan ilmiy tadqiqot loyihasi (500 so'zdan iborat, ingliz tilida);

- ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha sertifikat;

- tibbiy ma'lumotnoma (ilovadagi maxsus shakl bo'yicha)

Mazkur dasturda qatnashayotgan Xitoy oliy ta'lim muassasalari va ta'lim sohalari bo'yicha ma'lumot bilan quyidagi elektron sahifasi orqali tanishish mumkin:

<http://www.campuschina.org/universities/index.html>

Ushbu tanlovda ishtirok etish uchun oliy ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatilgan vakillar qatoridan 2 nafar nomzod tanlab olinadi va "Buyuk devor" stipendiyasiga tavsiya etiladi.

Hujjatlarni (rektor xati bilan birga) vazirlikning Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasiga **joriy yil 1-fevral kechiktirmagan holda** yuborishingizni so'raymiz (e-mail: sh.eshqobilova@edu.uz).

Ilova: v.

**Vazirning birinchi  
o'rinbosari**



**Sh. Daliyev**